


DINO BUTSSATI



EYNSHTEYN BILAN İBLISVACHCHA

JAHON ADABIYATI TURKUMIDAN

UO'K: 821.131.1-3
KBK 84(4Ita)
B 96

Tahrir hay'ati:

**Naim Karimov, Umarali Normatov, Erkin A'zam,
Xurshid Do'stmuhammad, Suvon Meliyev,
Shuhrat Sirojiddinov, Dilmurod Quronov, Nurboi
Jabborov, Uzoq Jo'raqulov, Ulug'bek Hamdamov,
Abdurahmon Jo'rayev**

Tarjimon:

Uzoq JO'RAQULOV

Butsati, Dino

B 96 **Eynshteyn bilan iblisvachcha.** [Matn]: hikoya va novellalar / Dino Butsati; tarjimon: U. Jo'raqulov – T.: „Ziyo nashr“ nashriyoti 2020.–144 b.

ISBN 978-9943-6340-2-2

Ushbu kitobchadan Edgar Po, Abe Kabo, Dino Butsati, Latsuko Takaxasi, Sey Kubota, Tatsudzo Isikava singari jahon nosirlarining hikoya va novellalari o'rin olgan. Asarlar mavzu doirasi nihoyatda keng. Ularda ilmparvar odam, yolg'iz odam, zahmatkash odam, kichkina odam, yuzsiz odam singari hikoya obrazlarining murakkab hayotiy vaziyatlar ichra kechirgan kechmishlariga guvoh bo'lasiz. Bunday voqealar barchamizning ko'z o'ngimizda ro'y berib turgani bois, ushbu novella va hikoya obrazlarini o'z qadrdonlaringizdek qabul qilasiz. Zotan, badiiy adabiyot bashar hayotining ko'zgusi bo'lsa, hikoya shu ko'zguning serjilva bo'laklaridir.

Bir jild ostiga jamlangan ushbu asarlar hayotning nihoyasiz savollariga javob izlayotgan har qanday o'quvchiga manzur bo'ladi degan umiddamiz.

UO'K: 821.131.1-3
KBK 84(4Ita)

ISBN 978-9943-6340-2-2

© U. Jo'raqulov (tarj.)

© „Ziyo nashr“ nashriyoti, 2020.

NASHRIYOTDAN

Biz o'tgan mingyilliklar davomida jahon sivilizatsiyasiga ulkan hissa qo'shgan, uni o'zgartira olgan xalqimiz. Madaniyat, san'at, axloq, falsafa, fan va adabiyot sohasida buyuk ajdodlarimiz qoldirgan ulkan meros halli-hamon dunyoning barcha rivojlangan mamlakatlari tomonidan e'tirof etilib, o'rganib kelinadi. Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy, Burhoniddin Marg'iloniy, Ahmad Farg'oniy, Muso al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr Forobiy, Bahouddin Naqshband, Abullays Samarqandiy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Mahmud Koshg'ariy, Ahmad Yassaviy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Boborahim Mashrab singari yuzlab ajdodlarimiz borki, biz ularni hech ikkilanmasdan jahon miqyosidagi mutafakkirlar deysizga haqlimiz. Ammo bugungi avlod ularning buyuk shaxsiyati, tarixi, jahonshumul shon-shuhrati bilangina cheklanib qolmasligi lozim. Ajdodlarning madaniy, ma'rifiy, ilmiy, ijtimoiy, adabiy faoliyati, hayot tarziga doimo hushyor nigo va ibrat ko'zi bilan qarashimiz maqsadga muvofiq. Tarixiy manbalarni sinchiklab o'rganadigan bo'lsak, mutafakkir ajdodlarimiz jahon madaniyati, ilmiy va badiiy tafakkuri bilan doimiy tarzda hamqadam, hamnafas bo'lib kelganlar. Jahonda ro'y berayotgan birorta madaniy-intellektual o'zgarish, biror badiiy tafakkur namunasi bobolarimiz nazariidan chetda qolmagan. Ajdodlarimiz ularni o'qib, uqishar ekan, o'z milliy madaniyatlarini rivojlantirish, jahon xalqlaridan ortda qolmaslikni maqsad qilganlar. Ko'plab xorijiy tillarni bilganlari, xorij mutafakkirlari yozgan asarlarni tarjima qilganlari bu o'rinda qo'l kelgan. Eng muhimi, xorij madaniyati, badiiy-ilmiy tafakkuri namunalariga nisbatan shaxsiy to'xtamlari, xulosalari va tanqidiy nuqtayi nazarlari bo'lgan.

Bugun biz, mamlakatimiz Prezidenti kitobxonlik madaniyatini takomillashtirishni davlat siyosati darajasiga ko'targan bir paytda, o'tmishda yashab o'tgan buyuk ajdodlarimiz an'anasini izchil davom ettirishimiz, jahon madaniyati, san'ati, adabiyoti namunalariga nisbatan izchil va tizimli tarzda tanishib borishimiz zarur.

Xalqimiz ijtimoiy-madaniy hayotidagi mana shunday ulkan ehtiyojni nazarda tutib „Ziyo nashr“ nashriyoti bir xayrli ishga qo'l urishga bel bog'ladi. Ya'ni joriy yildan e'tiboran jahon nasri namunalarining yuz jildligini chop etishga kirishdi.